

FUQAROLIK HUQUQI TUSHUNCHASI, MAQSAD VA VAZIFALARI

Rahimova Umidaxon Tursunalievna

*Furqat tuman Kasb hunar maktabi Davlat va
huquq asoslari o'qituvchisi*

Annotatsiya: Ushbu maqolada o'quvchi fuqarolik huquqi, konstitutsiyaviy shaxsiy huquq va erkinliklarga ega ekanligi, meros va vasiyat haqida tushunchalarga ega bo'lishlari haqida yoritib o'tilgan.

Kalit so'z: Fuqarolik, meros, vasiyat, mulkiy munosabatlar, mehnat erkinligi, mulk erkinligi, fuqarolik huquqi, fuqarolik kodeksi.

Fuqarolik huquqi tovar-pul munosabatlarini va tomonlarning (qatnashchilarning) tengligiga asoslangan boshqa munosabatlarni, mulkiy munosabatlarni, shuningdek mulkiy munosabatlar bilan bog'liq bo'lgan shaxsiy nomulkiy munosabatlarpi tartibga soladigan huquqiy normalar majmuidan iborat.

Fuqarolik huquqi — insonning kundalik xayoti va faolpyati bilan chambarchas borlik bo'lgan huquq; soxalaridan biridir. U fuqaroga mulkiy va shaxsiy nomulkiy munosabatlar soxasida katta huquqlar beradi va bu huquqlarni boshqa fuqarolar tomonidan buzilishidan muxofaza qiladi. Xar bir fuqaro qonunga binoan shaxsiy va xususiy mulkka ega bo'lish, mulkni meros qilib olish va vasiyat qilib qoldirish, ijodiy faoliyat va xokazolar bilan bog'liq ravishda vujudga keladigan huquqlarni qo'lga kiritishga xaqlidir. Inson xayot va salomatligini, uning shaxni va qadr-qimmatini saqlash ishida fuqarolik qonunlari muxim ahamiyatga egadir.

Fuqarolik huquqi fuqarolarnipg maishiy, savdo-sotiq, qomunnal, transport xizmati ko'rsatish soxasidagi munosabatlarini tartibga solib turadi. Ko'pgina xollarda inson o'ziiiing ijtimony faoliyatida, xususan kasaba uyushmasi ishida, xalq maslaxatchisi bo'lib ishtirok etishda fuqarolik huquqi bilan bog'liq bo'ladi.

Birok fuqarolik huquqi faqat fuqarolar o'rtasidagi munosabatlarni tartibga solib qolmasdan, shu bilan birga korxonalar, muassasalar, tashkilotlar va davlat ishtiroki bilan bo'ladigan munosabatlarni ham tartibga soladi. Bularga mulkiy munosabatlar soxasidagi axvolni belgilab beradigan normalar, ular o'rtasidagi xo'jalik aloqalarini, maxsulot va mollar yetkazib berish, kapital qurilish, yuk tashish va xokazolar soxasidagi aloqalarni tartibga soluvchi normalar kiradi.

Jahon huquqi taraqqiyoti, huquqiy madaniyatni shakllantirish va rivojlantirish ham fuqarolik huquqi bilan bog'liqdir. Fuqarolik huquqiy fukkarolik jamiyatining asoslarini (mulk, moddiy nexmatlarga ega bo'lish xukuikiy tizimini, mol-mulkka ega bo'lish va uni birovga berish tartibi, shartnomalarni) qamrab oladn va shaxsning,

korxonalar, tashkilotlar va muassasalarning erkinligi hamda mustaqilligini, ularning mustaqil maqomini taxmin etadi.

Mulkiy va shaxsiy nomulkiy munosabatlar. Yuqorida aytib o'tilganidek, fuqarolik huquqi mulkiy munosabatlarni va ular bilan bog'liq bo'lgan shaxsiy nomulkiy munosabatlarni tartibga solib turadi.

Mulkiy munosabatlar mol-mulkning muayyan shaxslarga tegishli ekanligi, mol-mulkning bir shaxsdan ikkipchi shaxsga o'tishi bilan bog'liq bo'ladi. Mulkiy munosabatlarning birinchi guruxiga mulkka egalik qilish, foydalanish va uni tasarruf etish soxasidagi munosabatlar kiradi. Mulkiy munosabatlarning ikkinchi guruxiga, avvalo, ko'pdan-ko'p shartnoma munosabatlari (mol yetkazib berish shartnomasi, pudrat shartnomasi, yuklarni tashish shartnomasi munosabatlari) kiradi. Birok bu munosabatlar shartnoma asosida paydo bo'lmasligi ham mumkin. Xususan yetkazilgan zararining o'rnini qoplashda, asossiz ravishda qulga kiritilgan yoki saklangan mol-mulkni qaytarib berishda, meros mulkning merosxo'rga o'tishida shunday bo'ladi.

Lekin xar qanday mulkiy munosabat ham fuqarolik huquqi bilan tartibga solinavermaydi. Shunday munosabatlar ham borki, ular Ma'muriy, mexnat huquqi bilan tartibga solinadi. Fuqarolik huquqi tovar-pul shakllaridan foydalanish bilan bog'liq bo'lgan munosabatlarni ham tartibga soladi.

Shaxsiy nomulkiy munosabatlar mulkiy munosabatlardan shu bilan fark qiladiki, ular qiymat bilan ifodalanmaydi, shaxs bilan chambarchas bog'liq bo'lib, undan ajralmasdir. Shaxsiy nomulkiy munosabatlar fuqarolar o'rtasida ham, shuningdek korxonalar, muassasalar va tashkilotlar o'rtasida ham kelib chiqishi mumkin. Shaxsiy nomulkiy munosabatlar bilan bog'liq bo'lishi va bog'liq bo'lmasligi ham mumkin. Birinchi xolda biror kishi shaxsiy nomulkiy munosabatlarning poymol qilinishi unga ma'lum miqdorda moddiy zarar yetkazishi ham mumkin. Masalan, kishining oladigan qalam xaqi uning asar muallifi deb tan olingan yoki tan olinmaganiga bog'liq, bo'ladi.

Ikkinchi xolatga mulkiy mazmundan maxrum bo'lgan mexnatlar bilan bog'liq munosabatlar kiradi. Ularga quyidagilarni kiritish mumkin: nom, mualliflik nomi, or-nomus va qadr-qimmat, xayot va sogligi, tan daxlsizligi. Bu munosabatlarning deyarli hammasi odam tugilishi bilan paydo bo'ladi va uning vafot etishi bilan to'xtaydi.

Respublikaning fuqarolik qodeksi (540- modda) shunday qoidani ham o'z ichiga oladiki, u xat yozuvchining manfaatlarini muxofaza qiladi, ularni xat muallifining roziligisiz e'lon qilish mumkin emas, uning o'limidan keyin esa marxumning eri yoki xotini, bolalarining roziligisiz ma'lum qilib bo'lmaydi.

Mulkiy munosabatlar bilan bog'liq bo'lmagan nomulkiy munosabatlarga, shuningdek, tasviriy sanxat asarini (agar unda boshqa shaxs tasvirlangan bo'lsa) exlon qilish, nusxa ko'chirish va tarkatish tufayli vujudga keladigan munosabatlar kiradi. Umumiy qoidaga ko'ra bu ish faqat uning roziligi bilan, uning vafotidan keyin esa farzandlari va turmush o'rtogining roziligi bilan amalga oshirilishi mumkin. Lekin

shuni ham nazarda tutish kerakki, bunday shaxsiy nomulkiy munosabatlar fuqarolik huquqi bilan tartibga solinadn, bunday. xolda u qonunda bevosita nazarda tutilgan bo'lishi yoki shaxsiy nomulkiy munosabat moxiyatidan kelib chiqishi lozim.

Ijtimoiy munosabatlarni tartibga solish fuqarolik-huquqiy usuliniig xususiyatlari. Ijtimoiy munosabatlarni tartibga solishdagi fuqarolik-huquqiy usuli uchun shu narsa xoski, fuqarolik munosabat-larining ishtirokchilari bir-birlariga borlik bo'lmagan, bir-birlariga nisbatan teng mavqeda bo'lgan teng huquqli kishilar sifatida ish ko'radilar.

Fuqarolik-huquqiy munosabatlar ishtirokchilari o'rtasidagi nizolar xo'jalik sudi, yoxud xakamlik sudi tomonidan Da'vogarlik tartibida xal etiladi, bunda fuqarolik prosessual qonunlar belgilagan aloxida qoidalarga rioya qilinadi. Qonunda maxsus ko'zda tutilgan xollarda fuqarolik huquqlarini ximoya qilish Ma'muriy tartibda amalga oshiriladi.

Qonunlarda fuqarolik-huquqiy munosabatlarning ishtirokchilariga muayyan huquq va vazifalar berilar ekan, ularni buzganlik uchun tegishli javobgarlik choralari ham nazarda tutilgan. Fuqarolik-xukuivy javobgarlikning ob'ektiv mezoni yetkazilgan zararni to'liq qoplash prinsipidan iborat bo'lishi lozim. Fuqarolik huquqlari va vazifalarining vujudga kelishidagi eng muxim asos shartnoma xisoblanadn. Fuqarolik munosabatlari faqat qonunda ko'zda tutilgan asoslarda paydo bo'lib qolmay, shu bilan birga fuqarolik huquqi sub'ektlarining boshqa xatti-xarakatlari oqibatida ham vujudga keladi.

Fuqarolik qonunlari. Fuqarolik huquqining eng muxim masalalari O'zbekiston Respublikasiking 1964 yil

1 yanvarda kuchga kirgan Fuqarolik Qodeksiga kiradi. Yangi Fuqarolik Qodeksi qabul qilinishiga qadar respublika xududida sobik SSSR va ittifokdosh respublikalarning 1991 yil 31 mayda tasdiklangan fuqarolik qonunlari asoslari ham amal qildi. Fuqarolik huquqi manbalariga Qonstitusiya, respublika Vazirlar Maxkamasining fuqarolik munosabatlarini tartibga solish masalalariga doir qarorlari va huquqiy xujjatlar kiradi.

Fuqarolik-huquqiy munosabatlar

Fuqarolik huquqi ijtimoiy munosabatlarni tartibga soladi yoki bu munosabatlar ishtirokchilariga muayyan huquqlar va vazifalar yuklaydi yoxud ularga bu huquq va vazifalar o'zlari belgilashlariga imqon turdiradi. Natijada fuqarolik-huquqiy munosabatlarning bitta tomoni vaqolatli shaxs, ikkinchisi bajaruvchi shaxs sifatada namoyon bo'ladi.

Mazkur huquqlar va vazifalar muayyan sub'ektlarga, yaxni qonun bilan ana shunday munosabtlarga kirishish imqoni berilgan shaxslarga yuklanganligi sababli sub'ektiv huquq va vazifalar deb ataladi. Shuning uchun katnashchilari fuqarolik huquq normalarida ko'zda tutilgan yoki ruxsat etilgan sub'ektiv huquq va vazifalarning

ijrochilari sifatida maydonga chiqadigan munosabat ham fuqarolik-huquqiy munosabat deb ataladi.

Fuqarolik-huquqiy munosabatlarning o'ziga xos xususiyatlari g'uyidagilardir: sub'ektlarning keng doirasi, ob'ektlarning ko'p sonli ekanligi, tomonlarning kelishuviga binoan bir qator huquqiy munosabatlarning mazmunini belgilash imqoniyati, huquqiy munosabatlarning paydo bo'lishi, o'zgarishi va to'xtatilishi asoslarining xilma-xilligi, fuqarolik huquqlarini, fuqarolik-huquqiy javobgarlik chora-tadbirlarini amalga oshirish usullarining o'ziga xos tomonlari.

Fuqarolik-huquqiy munosabat ishtirokchilarining tarkibi o'zgarishn mumkin, bu xol huquqning qabul qilinishi tufayli sodir bo'ladi, huquqning qabul qilinishi deganda huquqlarning bir shaxsdan (oldingi huquq egasidan) ikkinchi shaxsga (huquqni qabul qilgan kishiga) o'tishi tushuniladi. U o'zidan oldingi huquq egasining o'rniga huquqiy munosabatlarga kirishadi.

Fuqarolik-huquqiy munosabatlarning asosii unsurlari: sub'ekt, ob'ekt, mazmun xisoblanadi.

Fuqarolik-huquqiy munosabatlar sub'ektlari sifatida fuqarolar (jismoniy shaxslar), yuridik shaxslar, davlat, shuningdek Ma'muriy-xududiy tuzilmalar maydonga chiqadilar.

Fuqarolik-huquqiy munosabatlarning ob'ekti quyidagilardir: narsa-buyumlar, pul, qimmatli qogozlar, boshqa mol-mulk, shu jumladan mulkiy huquqlar, ixtirolar, sanoat namunalari, ilm-fan, adabiyot, sanxat asarlari, aqliy faoliyatning boshqa natijalari, shuningdek boshqa moddiy va nomoddiy ne'matlar, xatti-xarakatlar. Shuningdek, insonning iomi, or-nomusi, kadr-kimmati, xayoti, salomatligi, tan daxlsizligi ham fuqarolik-huquqiy munosabatlar ob'ektlariga kiradi.

Fuqarolik-huquqiy munosabatlar mazmuni sub'ektiv huquq, va vazifalardan iboratdir, chunki ular shunday bir asospy narsani tashkil etadiki, u siz huquqiy munosabatlar bo'lmaydi, bo'lishi ham mumkin emas.

Sub'ektiv huquq deyilganda vaqolatli shaxsning mumkin bo'lgan xulk-atvorining qonunda ruxsat etilgan choratadbiri tushuniladi. Sub'ektiv vazifalar deyilganda javobgar shaxsning lozim darajadagi xulk-atvorining chora-tadbiri tushuniladi, u qonunda belgilangan yoki ruxsat etilgan bo'ladi.

Sub'ektiv huquq, sub'ektiv tegishli vazifalar bilan uzviy borlikdir. Sub'ektiv huquq bilan sub'ektiv vazifa bir vaktning o'zida paydo bo'ladi. Vazifa o'z xususiyatiga ko'ra sub'ektiv huquqning mazmuniga tulik mos keladi. Bunda vujudga keladigan huquqiy munosabatning mazmuni keyinchalik o'zgarishi, murakkablashuvi, huquqiy munosabat ishtirokchilarida yakin huquqlar va vaziflar paydo bo'lishn mumkin. Ko'pgana huquqiy munosabatlar paydo bo'lgan vaqtidan boshlab murakkab bo'ladi. Ularning sub'ektlari ayni vaktning o'zida ham vaqolatli tomon, ham majburiy tomon bo'lib maydonga chiqishi mumkin.

Sub'ektiv huquqni ob'ektiv huquqdan farklash zarur. Ob'ektiv huquq hamma uchun majburiy bo'lgak normalar, xulk-atvor qoidalaridan tashkil topadi (mulkdorga egalik qilish, foydalanish, tassarruf etish huquqi mansub bo'ladi). Qonkret shaxslar esa shu normaga muvofik narsa-buyumga ega bo'lish, foydalanish, tasarruf qilish uchun uni yo'l ko'yiladigan usul bilan qo'lga kiritishi va bu bilan buyuk bo'lgan sub'ektiv fuqarolik huquqiga ham ega bo'lishi lozim.

Fuqarolik-huquqiy munosabatlar mulkiy va shaxsiy nomulkiy munosabatlar, moddiy va majburiyatli, mutlak va nisbiy munosabatlar bo'ladi. Moddiy-huquqiy munosabatlar narsaga ega bo'lish huquqi bilan, majburiyatli munosabatlar talab qilish huquqi bilan bog'liq bo'ladi. Moddiy munosabatlarga mulk huquqi, to'la xo'jalik yuritish huquqi, garovga olish huquqi, majburiyatli munosabatlarga shartnomalardan kelib chiqadigan munosabatlar kiradn.

Fuqarolik-huquqiy munosabat xar doim yuridik faktlar—xarakatlar, voqealar asosida vujudga keladi. Voqealar kishilarning irodasiga bog'liq bo'lmagan xolda paydo bo'ladigan yuridik faktlardir (tabiiy ofatlar). Xarakatlar paydo bqlishi odamlar irodasiga borlik bo'lmagan xolda paydo bo'ladigan yuridik faktlardir (bitishuv, shartnoma, zarar yetkazish, maxmurpy xujjat chiqarish, kashfiyot yaratish).

Xarakatlar qonuniy va gayri qonuniy xarakatlarga bo'linadi. Qonuniy xarakatlar qonunga muvofik, amalga oshiriladi, gayri qonuniy xarakatlar esa qonunni buzgan xolda sodir etiladi.

Fuqarolik huquqlarinn sud (xo'jalnk sudi) ximoya qiladi. Fuqarolik huquqlarini ximoya qilishining Ma'muriy tartibi ham mavjuddir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

- 1.O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi
- 2.O.Karimova, N.Ismatova «Davlat va huquq asoslari».